

NAZAR ESHONQULNING “GO‘RO‘G‘LI” ROMANIGA CHIZGILAR

ШТРИХИ К РОМАНУ “ГОРОГЛИ” НАЗАРА ЭШОНКУЛА

NOTES ON NAZAR ESHONQUL'S NOVEL “GO‘RO‘G‘LI”

Axmadjanova Zulfiya Ilyos qizi

Toshkent Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Bekobod manzili o‘qituvchisi

akhmadjanovazulfiya@gmail.com, +998901261906

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20711466>

Annotatsiya: Mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti adabiyotimizdagi alohida bir sahifadir. Bu sahifaning boshqalarga o‘xshamagan o‘ziga xosliklari, uslub va mazmun o‘zgachaligi, modernistik qirralari mavjuddir. Mazkur maqolada Nazar Eshonqulning “Go‘ro‘g‘li” romani misolida ana o‘sha o‘ziga xosliklar, alohidaliklar tahlil qilinadi. Tirikligini isbotlay olmagan shaxsning qalb iztiroblari orqali davrga xos bo‘lgan bo‘g‘iq muhit ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: adabiyot, mustaqillik, nasr, roman, modernizm, absurdlik, epigrafi, xalq og‘zaki ijodi

Аннотация: Литература узбекского периода независимости представляет собой особую страницу в истории нашей литературы. Эта страница отличается своими неповторимыми особенностями, своеобразием стиля и содержания, а также модернистскими чертами. В данной статье на примере романа Назар Эшонкул “Горогли” анализируются именно эти уникальные особенности и отличительные черты. Через душевные страдания человека, не сумевшего доказать собственное существование, раскрывается удушающая атмосфера, характерная для данной эпохи.

Ключевые слова: литература, независимость, проза, роман, модернизм, абсурдизм, эпиграф, устное народное творчество

Annotation: The literature of the Independence period occupies a special place in the history of Uzbek literature. This period is distinguished by its unique characteristics, distinctive style and content, as well as its modernist features. This article analyzes these specific qualities and distinctive aspects through the example of the novel “Go‘ro‘g‘li” by Nazar Eshonqul. Through the inner suffering of a person who is unable to prove his own existence, the novel reveals the oppressive atmosphere characteristic of the era.

Key words: literature, independence, prose, novel, modernism, absurdism, epigraph, oral folk literature

KIRISH

Mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti namunalaridan bahramand bo‘lar ekanmiz, bu davrda yaratilish asarlarning mutlaqo o‘zgacha, yangicha qiyofada maydonga kelganligiga bevosita guvoh bo‘lamiz. Bu davr adabiyotida shaxs ruhiyati, uning o‘ziga xosliklarini ochib berish, uni tahlil plazmasidan o‘tkazish voqelikka nisbatan oldingi o‘ringa chiqib oldi. Bunday noodatiylik bir qarashda tushunmovchilikni, absurdlikni, abstraktlikni yuzaga keltirdi. Ushbu davr adabiyotida yangicha ruh boshlandiki, asarlar yangicha qabul qilina boshlandi, balki qabul qilishning o‘zi katta bir hodisotga aylandi. Bu voqelikni adabiyotshunoslar “modernizm” degan tushuncha bilan izohlashdi. Shu o‘rinda Nazar Eshonqulning modernizmga bergan quyidagi ta’rifini keltirish o‘rinlidir: “Modernizm – yangilik degani, yangicha tasavvur, yangicha qabul qilish, degani. Uning boshqa ma’nosi yo‘q. Adabiyotni esa olabo‘ji bilan qo‘rqitib bo‘lmaydi. U

hassalardan qoʻrqib emas, ong va did ehtiyoji boʻlib yangilanaveradi, oʻzgaraveradi”. [1] Bu yangilanishlar nasrda ham, nazmda ham, dramaturgiyada ham oʻzining yorqin ifodasini topdi. Mustaqillik davrida oʻzbek nasri sostrealizm tazyiqi va iskanjasidan xalos boʻldi, hayotni yangicha badiiy aks ettirish yoʻliga chiqib oldi hamda bu sohada muayyan yutuqlarga erishdi. Prozoiklarimiz olis va yaqin oʻtmish, kechmish voqeligini yangicha tasvir etish bilan birga, bevosita mustaqillik davri toʻgʻrisida ham turli janrlarda xilma-xil asarlar yoza boshladilar. Natijada, adabiyotimizda mustaqillik davri voqeligini tasvirlashga, yangi davr qahramonlarini adabiyot qahramonlariga aylantirishga intilish va qiziqish koʻzga yaqqol tashlana boshladi. Shu singari yangilanishning aks-sadosi oʻlaroq, Nazar Eshonqulning “Goʻroʻgʻli yoxud hayot suvi”, Toʻxtamurod Rustamovning “Kapalaklar oʻyini”, Luqmon Boʻrixonning “Jaziramadagi odamlar” yangligʻ romanlari adabiyot ixlosmandlarining koʻplab bahs va munozaralariga sabab boʻldi. Bu uchala roman ham oʻziga xos badiiyatiga, syujet chizigʻiga, qahramonlar ruhiy olamidagi evrishlarning turfaligiga, badiiy tasvir hamda poetik nutq vositalarining oʻzgachaligiga qaramay, ularning har uchalasini kesib oʻtuvchi umumiylik, oʻxshashlik iplarining mavjudligi kishini ular haqda yanada teranroq mushohada yuritishga chaqiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Nazar Eshonqulning “Goʻroʻgʻli yoxud hayot suvi” romani yozuvchining oʻzi taʼkidlaganidek, “Devorlarini zax bosgan, qulash arafasiga kelib qolgan, insonning botiniy quvvatini soʻrish evaziga yashagan tuzumning badboʻy hidlari anqib turgan” bir asar sifatida oʻqirman koʻz oʻngida namoyon boʻladi. Romanning debochasi kabi jaranglovchi epigraf ham bu asarning butun qiyofasiga tiniq koʻzgu tutib beradi, goʻyo. Epigrafga diqqat qaratsak: “... hayot suvin izlab oʻtdi Gilgamish”. [2] “Gilgamish” dostonidan olingan bu parcha asar bosh qahramoni N. ga, uning asar mobaynida kechiruvchi xatti-harakatiga bevosita ishora qiladi. Gilgamish hayot, tiriklik, boqiy umr suvinini izlagan boʻlsa, N. oʻzidagi mavjud tiriklik nafasini oʻzgalarga anglatolmay chora izlab oʻtdi. Ming afsuski, u izlagan chora mustabid tuzumning sovuq iskanjasi taʼsirida edi. Asar nomlanishi ham mavjud qoliplarga mutlaqo zidligi bilan insonni hayratlantiradi: Goʻroʻgʻli. Nega aynan Goʻroʻgʻli? Asarni mutolaa qilib, ichiga kirib borganimiz sayin bu savolning javobi beixtiyor ongimizda aks etadi. N. ning qismatida Goʻroʻgʻli singari goʻrda dunyoga kelish bitilmagan boʻlsa-da, ammo bu qabr, bu goʻr uni bir umr mobaynida taʼqib etadi, oʻzining sovuq ogʻushiga chorlayveradi. Balki, N. goʻrda dunyoga kelmadi deb faqat botinga qarab hukm chiqarayotgandirmiz, zohirga ham eʼtibor qaratsak, balki u avvalboshdanoq goʻrda tugʻilgandir. “Inson tuproqdan yaratilgan va u albatta yana tuproqqa qaytadi” degan rad etib boʻlmas hayot haqiqati mavjud. Balki N. ham goʻrda dunyoga kelgan va bir kun kelib yana uning oʻziga qaytgandir. Romanning sovet tuzumining jirkanch basharasidan bir manzara ekanligini eslasak, bu tahmin oʻz tasdigʻini topadi. Ha, chindan-da, N. mustabid tuzum deya nomlanuvchi goʻrdan-da azobliroq bir davrda dunyoga keldi va bu tuzum uning tirikligiga har lahzada tahdid solib turishi tabiiy holdir. Odatda, aksariyat yaxshi asarlarda asarning boshlanishidagi birinchi jumla hamda uning intihosini taʼminlovchi soʻnggi jumla hal qiluvchi ahamiyatga ega, asarning boshdan oyoq mazmunini oʻziga singdirgan, uning butun boshli badiiy voqelik sifatidagi rolini izohlovchi bir vosita boʻlib keladi. Roman “N. ni yangi lavozimga tavsiya qilishdi” [2] jumlasini bilan boshlanib, “U yaqinlashib qolgan poyezdga qarab qadam tashladi va soʻnggi bor vokzalga, bir-birini turtib, surtib borayotgan olomonga koʻz tashladi – u yerda uni goʻrkov – sud ijrochisi kuzatib turar, goʻyo u sud hukmining qanday ijro etilishini koʻrgani kelganday edi; N. oxirgi daqiqada goʻrkovning koʻzini eslashga tirishdi; biroq

eslolmadi va shu holicha, xuddi Iskandar kabi men ham qo'limda hech narsa olib ketayotganim yo'q degandek o'zini qora bo'shliq ichiga otdi" [2] jumlasini bilan yakunlanadi. E'tibor qaratsak, roman shirin yolg'on, go'zal baxt, shodlik, muvaffaqiyat to'g'risidagi hukm bilan boshlanib, oxirida achchiqdan achchiq haqiqat, ulkan baxtsizlik, poyoni yo'q azob-uqubat, sanchiqli muvaffaqiyatsizlik – o'z tirikligini isbot etishga urina-urina oxiri holdan toygan, o'zi uchun sovet tuzumining malaylari tomonidan chiqarilgan hukmga bo'yin egib, barbod bo'lish, rostakamiga o'lish holati bilan tugallanadi. Axir bejizga aytishmaydi-ku: Yaxshilik bilan yomonlikning, baxt va baxtsizlikning, orzular ro'yobi va sarobning orasi bir qadam deb. Bu asarda shunday. Asar yolg'on bo'lsa-da baxt bilan boshlandi va haqiqiy, rost baxtsizlik bilan yakun topdi. Baxtning nishonasi sifatida namoyon bo'luvchi birinchi jumlaning juda qisqaligi va baxtsizlik alomati o'rnida zuhur bo'luvchi so'nggi jumlaning juda uzunligida ham qandaydir ma'no borday, go'yo. Bu orqali balki yozirman baxtning juda qisqa vaqt his qilinishiga, uning shiddat bilan kelib darrov tamom bo'lishiga, baxtsizlikning esa aksincha uzundan-uzun azob bilan kelib, muntazam ravishda his qilinib turilishiga ishora qilgandir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Asarda ishtirok etuvchi ba'zi bir so'zlar muallifning xalq og'zaki ijodi namunalaridan oqilona foydalanganligidan dalolat berib turadi. Jumladan, epigrafning "Gilgamish" dostonidan keltirilganligi, asarning nomi, asar yakunida qatnashuvchi Iskandar so'zi, olim Shomon ismi bu fikrimizni tasdiqlaydi. Asarning boshidan oxiriga qadar abstraktlik, labirintlik holati hukm suradi. Hatto, bu abstraktlik holati personajlar ismlarining, siyosiy muassasalar nomlarining oshkor etilmay, ularning faqat bosh harflarinigina berilishi, ayrim qahramon ismlarining avval boshqa qiyofa-yu o'zga ismda namoyon bo'lib, keyin bu narsalarning o'zgarib qolishi (N. uylanish taklifini bildirgan ayolning ismi asar boshida Havo, keyin esa Guli tarzida keladi, qahramon ichki dunyosini ochib beruvchi jumlar ham shunga muvofiq o'zgarib qoladi) kishini biroz chalkashtirib yuboradi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mustaqillik davri adabiyoti adabiyot maydoniga yangicha, avval ko'zga tashlanmagan qiyofa bilan kirib keldi. She'riyatda ham, nasrda ham butunlay o'zgacha, modernistik ruhdagi ijod namunalari bo'y ko'rsatdi. Bu singari o'zgarishlar qalami o'tkir yozuvchi Nazar Eshonqulning ham deyarli barcha asarlarida, xususan, "Go'ro'g'li yoxud hayot suvi" romanida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Asarlarni mutolaa qilar ekanmiz, ularda G'arbning mashhur modernistik yozuvchilari, jumladan, Frans Kafkaning ta'siri benihoya yuqoriligiga guvoh bo'lamiz. Bu mustaqillik davri o'zbek prozasi uchun ayni muhim jihatlardan biri bo'lib sanaladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Salomov Sh. Nazar Eshonqul: "Adabiyot baribir yangilanaveradi". – T.: O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2005. 45-son
2. Nazar Eshonqul. Go'ro'g'li yoxud hayot suvi. – T.: G'afur G'ulom, 2018.
3. <https://kh-davron.uz>
4. <https://kitobxon.com>
5. <https://n.ziyouz.com>